

O'SMIR YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI O'QUV-FAOLIYATIGA QIZIQTIRISH METODLARI

Sariboyev Nurali Abdunazarovich

Guliston davlat pedagogika instituti pedagogika kafedrası o'qituvchisi.

E-mail: sariboyevnurali986@gmail.com

Sayliyeva Umida Sodiqovna

Guliston davlat pedagogika instituti pedagogika yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

E-mail: umidasayliyeva09@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11069643>

***Annotatsiya.** Maqolada bolalarning o'smirlik davridagi xarakter-xususiyati, atrof-muhitga, insonlarga bo'lgan munosabati, o'quv jarayonlarga qiziqishi shuningdek o'smir yoshidagi o'quvchilarni dars jarayoniga jalb qilishning usul va metodlari haqida umumiy tushuncha. O'smir bolalarda psixologik o'zgarishlar.*

***Kalit so'zlar:** O'smir, xarakter, munosabat, o'quv jarayon, faoliyat, o'quv metodlari, atrof-muhit, psixologik, yoshlik, davr, murakkab, ijtimoiy, o'tish davri, inqiroz davri, shakl, kuzatish.*

METHODS OF INTERESTING TEENAGE STUDENTS IN STUDY ACTIVITIES

***Abstract.** The characteristics of children in adolescence, their attitude to the environment, people, interest in educational processes, as well as general understanding of the methods and methods of involving teenage students in the lesson process. Psychological changes in adolescent children.*

***Keywords:** Adolescent, character, attitude, educational process, activity, educational methods, psychological environment, youth, period, complex, social transition period, crisis period, form, observation.*

МЕТОДЫ ЗАИНТЕРЕСОВАНИЯ УЧЕБНЫХ СТУДЕНТОВ ПОДРОСТКОВ В УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

***Аннотация.** В статье дана характеристика детей в подростковом возрасте, их отношение к окружающей среде, людям, интерес к образовательным процессам, а также общее представление о способах и методах вовлечения учащихся-подростков в учебный процесс. Психологические изменения у детей-подростков.*

***Ключевые слова:** Подросток, характер, отношение, образовательный процесс, деятельность, методы обучения, психологическая среда, комплекс, социальной переходный, период, форма, наблюдения.*

O'smirlik davri insonni bolalikdan yoshlikka o'tuvchiva o'z navbatida boshqa davrlardan o'zining nisbatan keskinroq, boshqa davrlardan murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi davrdir. Bu davrda asosan bolalarning 5-8sinflarda o'qish paytlariga to'g'ri keladi, yosh jihatdan esa 11-12yoshdan 14-15yoshgacha bo'lgan davr oralig'ida kechadi. Ba'zan bolalarning ayrimlarida bu davr 1-2yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin.

O'smirlik davrining og'ir murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o'zgaradi. Bu davrda o'smir hayotida uning ruhiyati, organizmining fiziologik, holatlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. [1]

Aksatiyat holatlarda, munosabatlarda bir -biriga qarshiliklar uchraydi. Ayni o'smirlik davrida bola na "bola" na "katta" deb atab bo'lmaydi. Buning o'z-o'ziga va yon-atrofidagi insonlarga nisbatan bo'lgan munosabatlari butunlay o'zgacha xarakter kashf etib boradi.

O'smirning intilishlari, ijtimoiy yo'nalganligi qaytadan rivojlanadi, o'z-o'zini anglashi, baholashi, qarashlari o'zgaradi. Uning uchun o'z "men"i va shu "men"ning ahamiyati ortadi.

O'smirlik davri ayrim maxsus kitoblarda "o'tish davri", "og'ir davr", "inqiroz davri", kabi nomlar bilan ataladi. O'smirlik davrining xarakterli xususiyati - bu davrda bolalarda kuzatiladigan o'smirlik avtonomiyasi holatidir. O'smirlik avtonomiyasi huquqiy, emotsional avtonomiyamakoni avtonomiya, kabi turlari farqlanadi. Ma'lumki, bola dunyoga kelgan kundan boshlab kimningdir qaramog'ida bo'ladi, chunki u shunga muhtoj bo'ladi. Ota-ona yoki yaqinlari uni ovqatlantiradi, kiyintiradi, parvarishlaydi, tarbiyalaydi va bola doimiy ravishda kattalar nazorati ostida bo'ladi. Ular bolani har tomonlama qo'llab-quvvatlab turadilar va bola bunday jarayonga, daldalarga muhtojlik his etib turadi. O'smirlik davrida esa bola o'z hayotini, xavfsizligini ta'minlash borasida nisbatan mustaqillika erishadi. [2]

Endi o'z -o'zini himoya qila olishi lozim bo'lsa, o'zi o'z imkoniyatlari darajasida mehnat qilib, yetarli darajada daromad qilishi, o'z ehtiyojlarini mustaqil ravishda o'zi qondira olishi mumkin bo'ladi. Agarda bunday paytda o'smir yoshidagi bolalar mustaqil ravishda ishlashni boshlasa va o'z shaxsiy mablag'iga ega bo'la boshlasa, o'qishga bo'lgan qiziqishi susayib, ishlashga rahbati oshadi va hattoki ota-onalar bilan bo'ladigan munosabatlarda biroz jiddiyatli holatlar ro'yi berishi mumkin.

- O'smirlik davrida bolada huquqiy avtonomiya shakllanadi bu asosan bola o'smirlik yoshiga yetishi bilan unga qator huquqiy imkoniyatlar berilishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda bola yuridik shaxs hisoblanib, ovoz berish huquqiga ega bo'ladi. Mabodo bu davrda o'smir ota -

onasi ajralib ketgudek bo'lsa, bu holatda o'smirning qayerda va kim bilan qolishi bola xohishiga qarab hal etiladi.

- O'smirlarda kuzatiladigan avtonomiya holatining yana biri makoniy avtonomiyadir. Bunga ko'ra o'smirlar imkon qadar o'z xonasida yolg'iz qolishga, biror-bir ishni bajarayotgan yoki biror-bir joyda bo'lgan vaqtlarida imkon qadar yolg'iz bo'lishga, ayniqsa o'z ota-onasi, oila a'zolari nazaridan chetroqda bo'lishga, o'z o'y -hayollari bilan mashg'ul bo'lib vaqt o'tkazishga intilib qoladi. Suhbatlashsa ham asosan o'z tengdoshlari, yaqin do'stlari bilangina muloqotda bo'lib o'z ota-onasi bilan imkon qadar kamroq muloqotda bo'lishga intilib o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qoladi.

Ayni vaqtda o'smir kuzatilayotgan bu hodisalarning asl sababini bilmagan ayrim ota-onalar ularning bunday holatidan xavotirlanib ular bilan oldingiga qaraganda ko'proq qiziqib qoladilar. Boshqacha qilib aytganda ularning avtonomiyasiga "bostirib kiradilar". Buni esa o'smirlar yoqtirmaydilar. Bunday holatlar o'smirlar va ularning ota-onalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarida kelishmovchiliklar, nizolarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. O'smir ruhiyatida kuzatiladigan xarakterli xususiyatlardan biri ularning o'ta ta'sirlanuvchan, jizzaki, qo'rs, sal narsaga xafa bo'lishi uning noturg'unligini ifodasidir. Bunday holatlarning yuzaga kelishi sabablaridan biri bevosita balog'atga yetish va shu bilan bog'liq o'smir organizmida ro'y beradigan psixofziologik o'zgarishlar bilan bog'liq

- O'smirlik davrida ayni bolaning "men"i qaytadan shakllana boradi. Uning atrofdagilarga, ayniqsa, o'z-o'ziga bo'lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlarini yo'nalishi keskin o'zgaradi.

Uning o'z shaxsiga bo'lgan e'tibori kuchayadi.

- Shuningdek o'smirlar nihoyatda taqlidchan bo'lib, ularda hali aniq bir fikr, dunyoqarash shakllanmagan bo'ladi. Ular tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik o'smir shaxsiy fikr aksariyat hollarda asoslanmagan bo'ladi. Shuning uchun ham ular ota-onalarning atrofdagi kattalarning, shuningdek ustozlarning to'g'ri yo'lni ko'rsatishlariga qaramasdan, o'z fikrlarini o'tkazishga harakat qiladilar. Bu vaqtda bolaning ijtimoiy mavqei o'zgaradi, o'zining yaqinlari, do'stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlari yuzaga keladi. Lekin eng katta o'zgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi. Ko'pgina o'smirlarda o'zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi, shuningdek o'zi haqidagi mavjud fikrlarning bugun unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning to'g'ri kelmayotganligi o'smirni asabiylashishiga olib keladi. Bu esa o'smir o'zi haqida salbiy fikr va qo'rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ba'zi o'smirlarni nima uchun atrofdagilar, kattalar shuningdek, ota-onasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga soladi. Bu holat ularni ichdan asabiylashishlariga sabab bo'ladi va o'smirlik davri krizisi deyiladi. O'smirlarning ota-onasi, kattalar bilan qiladigan muloqoti ularning katta bo'lganligi hissi asosida

tuzilgan bo'ldi. Ular katta tomonidan qilinadigan haq-huquqlarini cheklashlariga qarshilik va e'rirozlariga qattiq qayg'uradilar, shunday bo'lsada ammo ular kattalarning qo'llab-quvvatlashlariga ehtiyoj sezadi, lekin buni hech qachon birinchi bo'lib o'zi boshlamaydi. O'smir o'ziga nisbatan yosh bolalardek qilinadigan muomala-munosabatiga qattiq norozilik bildiradi. O'smirlar muloqoti nihoyatda o'zgaruvchanligi bilan xarakterlanadi. O'smirlilik davrida ko'pincha taqlidchanlik yuqori darajada rivojlanadi. Ko'pincha ular o'zlariga yaqin, tanish va yoqadigan kattalarning xatti-harakatlariga imitatsiya, taqlidchanlik qiladilar.

Shu sababli ota-onalar o'smir bolalarning atrofidagi insonlarga e'tiborli bo'lishi, tarbiyada o'zlari o'rnak bo'lmoqliklari kerak. Kattalar o'smirlar bilan do'stona uni to'la tushunadigan va aql bilan rahbarlik qilsalar, unga o'smirlar ijobiy qaraydilar, lekin bu rahbarlik kattaning xohish-istagi ustunligida kechsa, unday holda ular to'la qarshilik ko'rsatadilar. Bu qarshilik ko'pincha salbiy natijalarga, ba'zan depressiya holatni ham yuzaga keltirishi mumkin. Bunday holatlar ko'proq ota-onasi avtoritar munosabatda bo'luvchi oilalarda uchraydi. Bu oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlar hayotida mustaqil holda harakat qilishlari, o'z rejalarini amalga oshirishlari qiyin ma'suliyat tuyishga o'z zimmlariga olishlari birmuncha qiyinroq. Ular ko'pincha intellektual xarakterdagi muammolarni ham qiyinchilik bilan yengadilar.

Hozirgi kunda o'smir yoshidagi o'quvchilarni dars mashg'ulotlariga qiziqishini orttirish va ularni yanada ko'proq o'quv mashg'ulotlariga jalb qilish uchun ko'pgina ishlar qilinmoqda. Lekin o'quvchi yoshlarni dars jarayoniga bo'lgan munosabati yildan yilga yomonlashib bormoqda. Buning birdan bir asosiy sababi texnologiyalar, telefonlar bo'lmoqda. Bugungi kunda o'quvchi yoshlarni dangasa qilib qo'yayotgan narsa ham bu telefonlardir. "Har qanday narsaning ozi shirin" deganlaridek telefondan foydalanishning ham o'z chegarasi, me'yorlari bor.

O'qituvchilar O'smir yoshidagi o'quvchilarni dars mashg'ulotlariga qiziqtirish uchun ko'proq suhbat, savol-javob, ko'rgazma, metodlaridan foydalanishlari kerak.

O'smir yoshidagi bolalarning psixologiyasini yaxshi bilgan holda ushbu davrda bolaning ko'p ham bo'sh qoldirmaslik bor diqqat e'tiborini o'qishga, bilim olishga qaratmoq zarur. Chunki insonning qancha ko'p bo'sh vaqti bo'lsa, shunchalik ko'p yomon o'y-fikrlar uni qamrab oladi, va turli xil keraksiz ishlarga vaqt sarflaydi. O'smirlilik davri hammada bir xil kechmaydi kimlardir shu davrini ko'proq mehnat faoliyatiga yo'naltirsa yana kimlardir o'quv faoliyatiga, ba'zilar esa umuman keraksiz bo'lgan ishlarga sarflaydi. O'smir davridagi "katta"larga ko'proq maslahatni ota-ona berishi, ularni ko'proq tushunishga harakat qilishi zarur. Ustozlar ota-onalar bilan hamkorlikda ish qilishi har bir o'quvchiga vaqt ajratgan holda nazorat qilib borsalargina yaxshi natijalarga erishadilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak hamma yomon narsalar befarqlikdan e'tiborsizlikdan, loqaydlikdan kelib chiqadi. Atrofdagilarimizga, yaqinlarimizga e'tiborsiz bo'lmasligimiz, ular bilan ko'proq vaqtimizni samarali o'tkazishga harakat qilishimiz kerak ekan. Maktab o'qituvchi, psixologlari o'quvchilar bilan ko'plab suhbatlar o'tkazishlari, shuningdek o'smir yoshidagi o'quvchilar bilan alohida individual shug'ullanmoqliklari lozim.

REFERENCES

1. Egamberdieva N .M Ijtimoiy pedagogika .darslik T .2009.
2. Mavlonova R.Ijtimoiy pedagogika.O'quv qo'llanma T.Istiqloq 2009.
3. Shukurova Hulkar Baxtiyorovna.O'smirlar psixologiyasi.2019.
4. Davlatshin M.G.,Yosh va pedagogik psixologiya''.-T.,2004
5. Nishanova Z.T. va boshqalar „Rivojlanish psixologiyasi.Pedagogik psixologiya''.- T.;O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.2018.332-b
6. Nurqulova, G., & Saydaliyeva, M. (2023). PSYCHOLOGICAL METHODS OF EDUCATION AND DEVELOPMENT ACCORDING TO THE CHILD'S TEMPERAMENT. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(10), 92-95.
7. Nurkulova, G. (2022). THE PSYCHOLOGY OF SUBORDINATE BEHAVIOR. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(12), 204-207.
8. Ergashevna, N. G. (2023). Improving Educational Mastery Opportunities in Primary School.